



Classification of educational explanatory dictionaries in English and Uzbek linguistics

Dilbar Tosheva¹

Karshi State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form
10 April 2025

Accepted 2 May 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

learner's explanatory
dictionary,
lexicography,
English language,
Uzbek language,
bilingual dictionary,
monolingual dictionary,
electronic dictionary,
lexico-semantic analysis,
language education,
corpus linguistics,
classification.

ABSTRACT

The article presents a systematic analysis of the linguistic, lexico-semantic, and pedagogical features of learner's explanatory dictionaries developed in English and Uzbek. The research primarily focuses on identifying various types of dictionaries — monolingual (single-language), bilingual (two-language), electronic, and subject-specific — as well as establishing their classification criteria and demonstrating their functional role in the process of practical language instruction. The study emphasizes that modern English learner's dictionaries, developed based on corpus linguistics, are highly effective due to their integration of interactive and multimodal (audio, visual, contextual) approaches tailored to user needs.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp237-244>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz va o'zbek tilshunosligida o'quv izohli lug'atlarning klassifikatsiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

o'quv izohli lug'at,
lug'atshunoslik,
ingliz tili,
o'zbek tili,
bilingval lug'at,
monolingval lug'at,
elektron lug'at,
leksik-semantik tahlil,
til ta'limi,

Maqolada ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan o'quv izohli lug'atlarning lingvistik, leksik-semantik hamda pedagogik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqotda asosiy e'tibor lug'atlarning turlari — monolingval (bir tilli), bilingval (ikki tilli), elektron va maxsus sohalarga oid lug'atlarni aniqlash, ularning klassifikatsion mezonlarini belgilash va amaliy ta'lim jarayonidagi o'rnini ko'rsatishga qaratildi. Ingliz tilidagi zamonaviy o'quv lug'atlar korpus lingvistikasi asosida yaratilgani, foydalanuvchiga interaktiv va multimodal (audio,

¹ PhD, Independent Researcher, Karshi State University.

korpus lingvistikasi,
klassifikatsiya.

vizual, kontekstual) yondashuvlarni taklif qilgani tufayli yuqori
samaradorlikka ega ekani ko'rsatib o'tildi.

Классификация учебных толковых словарей в английском и узбекском языкознании

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

учебный толковый
словарь,
лексикография,
английский язык,
узбекский язык,
билингвальный словарь,
монолингвальный
словарь,
электронный словарь,
лексико-семантический
анализ,
преподавание языков,
корпусная лингвистика,
классификация.

В статье системно проанализированы лингвистические, лексико-семантические и педагогические особенности учебных толковых словарей, созданных на английском и узбекском языках. Основное внимание в исследовании уделяется типологии словарей — монолингвальных (одноязычных), билингвальных (двуязычных), электронных и специализированных, — а также определению их классификационных критериев и выявлению их роли в учебном процессе. Установлено, что современные учебные словари английского языка, разработанные на основе корпусной лингвистики, обладают высокой эффективностью благодаря интерактивному и мультимодальному (аудио, визуальный, контекстуальный) подходу к представлению лексического материала.

KIRISH

O'quv izohli lug'atlar til o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi lug'atlar lingvistik va pedagogik maqsadlarda yaratiladi. Ularning klassifikatsiyasi tilshunoslikda lug'atchilik va til ta'limi samaradorligini oshirishda zarurdir. Tilshunoslik va leksikografiya sohasida lug'atlarni tasniflash (klassifikatsiya qilish) ularning maqsadi, tuzilishi, tili, shakli, foydalanuvchi auditoriyasi hamda foydalanish kontekstiga qarab amalga oshiriladi. Lug'atlarni ilmiy asosda toifalash ularning lingvistik qiymatini belgilash, zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish va samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

1. Tuzilishiga ko'ra:

Monolingval (bir tilli) lug'atlar — bir til doirasida so'zlarning izohi, talaffuzi, misollari keltiriladi (masalan, Oxford Advanced Learner's Dictionary).

Bilingval (ikki tilli) lug'atlar — bir tildagi so'zlar boshqa tilga tarjimasi bilan taqdim etiladi (masalan, English-Uzbek Learner's Dictionary).

Multilingual (ko'p tilli) lug'atlar — uch va undan ortiq tillardagi tarjimalarni qamrab oladi.

2. Maqsadli auditoriyasiga ko'ra:

O'quv lug'atlar — til o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan, tushunarli til va didaktik vositalar bilan boyitilgan (Atkins & Rundell, 2008).

Ilmiy lug'atlar — tilshunoslar, tarjimonlar yoki filologlar uchun mo'ljallangan.

Umumiy til lug'atlari — keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan, adabiy til normalariga asoslangan (Hartmann, 2001).

3. Ko'inishiga ko'ra:

Bosma lug'atlar — an'anaviy shaklda, kitob ko'inishida.

Elektron lug'atlar — kompyuter, mobil ilova yoki veb-sayt orqali ishlatiladigan interaktiv vositalar (Tursunova, 2020).

Multimodal lug'atlar — matn, audio, video va grafik ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan zamonaviy platformalar (Kilgarrieff & Rundell, 2002).

4. Ichki tarkibiga ko'ra:

Izohli lug'atlar — so'zlarning ma'nosi, uslubiy boyligi, konnotatsiyasi keltiriladi.

Terminologik lug'atlar — ma'lum bir soha (tibbiyot, huquq, fizika) uchun mo'ljallangan.

Sinonimlar, antonimlar, frazeologik birliklar lug'atlari — semantik guruhlar asosida tuziladi.

5. Foydalanish funksiyasiga ko'ra:

Normativ lug'atlar — adabiy til qoidalariga asoslanadi.

Deskriptiv lug'atlar — til birliklarini mavjud holatda tasvirlaydi, baho bermaydi.

Didaktik lug'atlar — o'quv jarayoniga mo'ljallangan, ko'pincha mashqlar bilan boyitilgan bo'ladi.

6. Korpus asosidagi lug'atlar:

Yangi avlod lug'atlarida korpus lingvistikasi asosida so'zlar real nutqdagi qo'llanishiga tayanib tuziladi. Bunday yondashuv ingliz tilida keng tarqalgan (Oxford, Cambridge, Macmillan lug'atlari), o'zbek tilida esa bunday tajriba endigina shakllanmoqda (Akbarov, 2018).

Til o'rganish jarayonida o'quv izohli lug'atlar muhim o'rin tutadi. Ular talabalarga so'zlarning ma'nosini, grammatik xususiyatlarini va kontekstda qo'llanilishini tushuntirishda yordam beradi. Bugungi kunda lug'atlar turli maqsad va foydalanuvchi guruhlar uchun yaratilmoqda. Shu bois, o'quv izohli lug'atlarning klassifikatsiyasi tilshunoslikda muhim ilmiy masalalardan biridir. O'quv izohli lug'atlar til o'rganishda asosiy vosita hisoblanadi va ularning turi, mazmuni hamda formati o'rganilayotgan tilga, uning lingvistik va madaniy xususiyatlariga qarab farqlanadi. Ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan lug'atlar tilshunoslikda o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi globallashuv va raqamli axborot asrida til o'rganish jarayoni nafaqat an'anaviy ta'lim muhitida, balki mustaqil, interaktiv va texnologik jihatdan boyitilgan muhitda ham amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda til o'rgatuvchi vositalar, xususan, o'quv izohli lug'atlar muhim manba sifatida alohida o'rin tutadi. Lug'atlar tilshunoslikning amaliy sohasi bo'lib, u nafaqat so'zlarning ma'nosini ochib berishga, balki ularning nutqiy, kontekstual va madaniy xususiyatlarini anglashga ham xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy o'quv lug'atlari foydalanuvchi ehtiyojlariga qarab moslashtirilgan bo'lib, til egallashda muhim psixolingvistik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Til o'rgatish va o'rganish vositasi sifatida lug'atlarning o'rni juda muhim bo'lib, ular orqali til o'rganuvchi so'z boyligini kengaytiradi, semantik bog'lanishlarni anglaydi, nutq birliklaridan to'g'ri foydalanishni o'rganadi. Bu ayniqsa ona tili va xorijiy til o'rganishda taqqoslash, tarjima qilish va kontekstda tushunish jarayonlarida yaqqol seziladi. Ingliz tilida yaratilgan o'quv lug'atlar xalqaro tajribaga asoslangan, foydalanuvchiga qulay va

texnologik vositalar bilan jihozlangan bo'lsa, o'zbek tilida yaratilayotgan lug'atlar ko'proq an'anaviy yondashuv asosida shakllangan.

Shu nuqtai nazardan, lug'atlarning klassifikatsiyasi, ularning lingvistik va pedagogik imkoniyatlarini o'rganish, shuningdek, ingliz va o'zbek tilidagi o'quv izohli lug'atlar orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

USULLAR

Tahlil uchun asos sifatida turli tilshunoslik manbalari va lug'atchilikka oid ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Lug'atlarning mazmuniy va format xususiyatlariga qarab ularni kategoriyalarga ajratish asosiy metod sifatida qo'llanildi. Shuningdek, o'zbek va xorijiy tilshunoslik adabiyotlari solishtirildi.

Ushbu tadqiqotda izlanish maqsadiga erishish va mavjud o'quv izohli lug'atlarni tizimli tahlil qilish uchun quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

1. Deskriptiv (ta'rifiy) usul

Bu usul orqali ingliz va o'zbek tillaridagi mavjud o'quv izohli lug'atlarning tuzilishi, tarkibi, funksional xususiyatlari va yasash prinsiplari tavsiflab berildi. Har bir lug'at namunasi alohida tahlil qilinib, ularning sarlavhali so'z tanlovi, semantik tavsif usullari va kontekstual misollar asosida baholandi.

2. Taqqoslash (komparativ) usuli

Ingliz va o'zbek tillaridagi lug'atlarning struktura va mazmun jihatlari o'zaro solishtirildi. Jumladan, foydalanuvchi auditoriyasi, so'z tanlash mezonlari, izoh berish texnikasi, multimediya imkoniyatlari va elektron shaklga moslashtirilganlik darajasi bo'yicha farqlar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv lug'atchilikda universal va milliy xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi.

3. Korpus lingvistikasi elementlari

Ayrim lug'atlarning tuzilishida korpus ma'lumotlaridan qanday foydalanilganligi o'rganildi. Jumladan, ingliz tilidagi lug'atlar (Oxford, Cambridge, Longman) korpus asosida ishlab chiqilgani qayd etildi.

4. Tahliliy-sintetik usul

Turli manbalar (lug'atlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar) asosida olingan ma'lumotlar umumlashtirildi, asosiy xulosalar chiqarildi va lug'atlarning o'quv jarayonidagi ahamiyati ko'rsatildi.

5. Ekspert baholash elementi

Tadqiqotda amaliy til o'rgatish sohasida faoliyat yurituvchi o'qituvchilar va mutaxassislarning fikr-mulohazalari o'rganilib, lug'atlarning o'quvchilarga ta'siri va foydalilik darajasi haqidagi mulohazalar ham hisobga olindi.

6. Empirik kuzatuv

Lug'atlardan real ta'lim muhitida foydalanish holatlari tahlil qilindi, foydalanuvchilarning tajribasi asosida ularning samaradorligi va mavjud kamchiliklari aniqlab borildi.

Ushbu usullarning qo'llanilishi natijasida lug'atlarning didaktik, lingvistik va texnologik xususiyatlari chuqur o'rganildi, shuningdek, o'zbek tilida yaratilayotgan zamonaviy lug'at resurslarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. O'quv izohli lug'atlarning tasnifi: Ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan o'quv izohli lug'atlar monolingval, bilingval, elektron va maxsus sohalarga oid lug'atlar shaklida tasniflanadi. Har bir tur ma'lum til o'rganish ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, lingvistik yondashuvlar va didaktik vazifalar asosida shakllantiriladi.

2. Ingliz tilidagi lug'atlar: Ushbu lug'atlar yuqori texnologik darajada ishlab chiqilgan bo'lib, foydalanuvchilar uchun interaktiv interfeyslar, multimedia elementlari (audio, video, vizual misollar), tezkor qidiruv imkoniyatlari va kontekstual ma'lumotlar bilan ta'minlangan. Bunday lug'atlar til o'rganish samaradorligini oshiradi va mustaqil ta'limni rag'batlantiradi.

3. O'zbek tilidagi lug'atlar: Asosan an'anaviy, matnga asoslangan shaklda bo'lib, ularning ko'pchiligida interaktiv vositalar yetarli darajada qo'llanilmagan. Shunga qaramay, so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda ijobiy siljishlar kuzatilmoqda: elektron lug'atlar yaratilmoqda, mobil platformalarga moslashtirish ishlari olib borilmoqda.

4. Bilingval lug'atlarning o'rni: Bilingval lug'atlar ikki til orasida semantik bog'lanishni ta'minlab, ayniqsa boshlang'ich bosqichda til o'rganayotganlar uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ammo yuqori til darajalarida ularning lingvokulturologik va kontekstual yoritilish darajasi cheklangan.

5. Maxsus soha lug'atlari: Tibbiyot, texnika, huquq kabi sohalarga oid lug'atlar terminologik aniqlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu turdagi lug'atlarning ham zamonaviy elektron shakllari ishlab chiqilishi zarurati mavjud.

6. Klassifikatsiyaning ilmiy-amaliy ahamiyati: Lug'atlarning toifalanishi til o'qitish metodikasini optimallashtirish, o'quv materiallarini moslashtirish va til resurslarini foydalanuvchi ehtiyojlariga yo'naltirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlarning sinchiklab o'rganilishi ularning o'zaro farqli va o'xshash jihatlarini aniqlashga imkon berdi.

Munozara (Discussion)

Lug'atlarning bu klassifikatsiyasi ularning maqsad va funksiyalariga muvofiqdir. Masalan, boshlang'ich o'rganuvchilar uchun bilingval lug'atlar qulay bo'lsa, yuqori darajadagi foydalanuvchilar uchun monolingval izohli va konseptual lug'atlar foydaliroq hisoblanadi. Elektron lug'atlar esa interaktivlik va multimediya imkoniyatlari bilan til o'rganishni tezlashtiradi. Shu bilan birga, maxsus sohalarga mo'ljallangan lug'atlar professional soha mutaxassislari uchun zarurdir. Bu klassifikatsiya kelgusida lug'at yaratuvchilarga yo'l-yo'riq sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ingliz tilida yaratilgan o'quv izohli lug'atlar ko'proq interaktiv va multimediya imkoniyatlariga ega bo'lib, global foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan. Ular til o'rganish uchun keng qamrovli resurs bo'lib, keng leksik va frazeologik ma'lumotlarni taqdim etadi. O'zbek tilidagi lug'atlar esa ko'proq milliy tilning strukturaviy va madaniy xususiyatlarini aks ettirishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, bilingval lug'atlar ikki til o'rganuvchilari uchun til o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Har ikki til uchun ham elektron lug'atlar til o'rganishni yanada interaktiv va samarali qilmoqda. Shu bois, lug'atlarni yaratishda lingvistik, pedagogik va texnologik yondashuvlarni birlashtirish zarur.

Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlarning klassifikatsiyasi ularning lingvistik, pedagogik va texnologik jihatlariga asoslangan holda aniq tasniflanishini ko'rsatdi. Ingliz tilidagi lug'atlar, ayniqsa, rivojlangan til o'rganish resurslari va elektron vositalar tufayli keng ko'lamli va interaktiv xususiyatlarga ega. Bu

lug'atlar til o'rganuvchilar uchun so'zlarning izohini taqdim etishda faqat matn bilan chegaralanmay, audio talaffuz, kontekstual misollar, sinonimlar va frazeologik birikmalarni ham qamrab oladi. Shuningdek, ular global auditoriyaga mo'ljallanganligi sababli, til o'rganishda zamonaviy metod va texnologiyalarni keng joriy qilmoqda. Bunga qarshi, o'zbek tilidagi o'quv izohli lug'atlar an'anaviy ko'rinishda bo'lib, milliy tilning madaniy va lingvistik xususiyatlarini aks ettirishga yo'naltirilgan. Elektron lug'atlar sohasida hali ingliz tiliga nisbatan orqada qolmoqda, lekin so'nggi yillarda onlayn va mobil platformalarda ular faollashmoqda. Bu jarayon milliy tilni saqlash va rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega, chunki elektron lug'atlar til o'rganishni qulaylashtirish bilan birga, tilni yosh avlodga yetkazishda vosita vazifasini o'taydi. Bilingval lug'atlar ingliz va o'zbek tillarini o'rganayotgan foydalanuvchilar uchun til o'rganishni osonlashtiruvchi muhim vosita ekanligi ma'lum bo'ldi. Ular so'zlarni ikki til o'rtasida tarjima va izoh bilan ta'minlab, boshlang'ich darajadagi o'rganishga katta yordam beradi. Ammo bilingval lug'atlarning ba'zi kamchiliklari ham mavjud, xususan, tilning madaniy va kontekstual jihatlarini yetarlicha yoritmasligi til o'rganishning yuqori bosqichlarida cheklovlarga olib keladi. Shu sababli, til o'rganishda monolingval lug'atlar bilan birgalikda foydalanish samaraliroqdir. Elektron lug'atlarning rivojlanishi til o'rganish jarayonida interaktivlik va individual moslashuv imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu o'z navbatida o'rganuvchilarning motivatsiyasini oshiradi va tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali yordam beradi. Ingliz tilidagi lug'atlarda bunday imkoniyatlar keng tatbiq etilgan bo'lsa, o'zbek tilidagi lug'atlar uchun bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini ko'paytirish, zamonaviy texnologiyalarni kengroq joriy etish zarur. Maxsus sohalarga mo'ljallangan lug'atlar ham tilshunoslik va amaliy til ta'limida katta ahamiyatga ega. Tibbiyot, huquq, iqtisodiyot kabi ixtisoslashgan sohalarda so'zlar va atamalarni aniq va tushunarli ta'riflash kasbiy malakani oshirishga xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maxsus lug'atlar soha mutaxassislari uchun birdek muhimdir.

Umuman olganda, lug'atchilik sohasida ingliz tilidagi ilg'or tajribalarni o'zbek tiliga tatbiq etish, milliy lingvistik va madaniy jihatlarini inobatga olgan holda zamonaviy elektron lug'atlar yaratish katta istiqbollarni ochadi. Til o'rganishda samaradorlikni oshirish uchun lingvistik, pedagogik va axborot texnologiyalari sohasining integratsiyasi zarur. Shuningdek, lug'atlarning foydalanuvchilarga moslashuvi va ular bilan ishlashning qulayligi til ta'limida muvaffaqiyat kalitidir.

XULOSA

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi o'quv izohli lug'atlarning klassifikatsiyasi tilshunoslik, lug'atchilik va til o'qitish nuqtai nazaridan batafsil tahlil qilindi. O'quv izohli lug'atlar til o'rganish jarayonida so'zlarning ma'nosini aniq va tushunarli tarzda taqdim etishda asosiy vosita hisoblanadi. Tadqiqot davomida lug'atlarning asosiy turlari — monolingval, bilingval, elektron va maxsus sohalarga mo'ljallangan lug'atlar — aniqlanib, ularning lingvistik, pedagogik va texnologik jihatlari taqqoslandi.

Ingliz tilidagi o'quv izohli lug'atlar dunyo miqyosida keng tarqalgan va yuqori texnologik imkoniyatlar bilan boyitilgan. Bu lug'atlar ko'pincha audio talaffuz, kontekst misollari, sinonimlar, antonimlar va frazeologik birliklarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, inglizcha lug'atlar ko'plab onlayn platformalar va mobil ilovalarda interaktiv shaklda taqdim etilib, foydalanuvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish imkoniyatini

yaratadi. Bunday lugʻatlar til oʻrganish jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli va intuitiv qiladi.

Oʻzbek tilidagi oʻquv izohli lugʻatlar esa milliy tilning lingvistik va madaniy oʻziga xosliklarini hisobga olgan holda shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda elektron lugʻatlarni yaratish va rivojlantirish boʻyicha katta ishlar olib borilmoqda. Mobil ilovalar, onlayn lugʻat platformalari va multimedia elementlari keng joriy etilmoqda. Bu esa til oʻrganayotganlar uchun qulaylik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, oʻzbek tilidagi lugʻatlar milliy madaniyatni aks ettirish, tilni saqlash va rivojlantirishda muhim vositadir.

Bilingval lugʻatlar ingliz va oʻzbek tillarini oʻrganayotganlar uchun muhim vosita boʻlib, ikki til oʻrtasida soʻzlarning tarjimai va izohlarini taqdim etadi. Bu lugʻatlar ayniqsa boshlangʻich va oʻrta darajadagi oʻrganuvchilar uchun qulaydir, chunki ular ikki tilda soʻz boyligini kengaytirishga yordam beradi hamda til oʻrganish jarayonini soddalashtiradi. Biroq, bilingval lugʻatlarning yomon tomoni shundaki, ular koʻpincha tilning madaniy va kontekstual jihatlarini yetarlicha ochib bera olmaydi, shuning uchun yuqori darajadagi foydalanuvchilar uchun monolingval izohli lugʻatlar afzal hisoblanadi.

Elektron lugʻatlar va multimediya vositalarining joriy etilishi til oʻrganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Audio talaffuz, video misollar, interaktiv mashqlar va avtomatik yangilanishlar foydalanuvchilar uchun juda qulay. Ingliz tilidagi lugʻatlar bunga misol boʻlsa, oʻzbek tilidagi lugʻatlar bu yoʻnalishda hali rivojlanish bosqichida, ammo istiqbolda katta imkoniyatlarga ega. Bu borada lugʻat yaratuvchilari va tilshunoslar uchun texnologik yondashuvlarni keng joriy etish, milliy til uchun elektron resurslar yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, maxsus sohalarga moʻljallangan lugʻatlar ham til oʻrganishda alohida oʻringa ega. Tibbiyot, huquq, texnika kabi sohalarda ishlatiladigan terminlarni oʻz ichiga olgan lugʻatlar professional til bilimini oshirishga yordam beradi va koʻp sohalarda malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim vositadir. Ingliz va oʻzbek tillarida bunday lugʻatlar yaratilishi tilshunoslik sohasining ixtisoslashuvini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va oʻzbek tillaridagi oʻquv izohli lugʻatlarning klassifikatsiyasi til oʻrganish jarayonining samaradorligini oshirish, lugʻatchilik ilmiy asoslarini chuqurlashtirish va til taʼlimida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har ikki til uchun lugʻat yaratishda lingvistik, pedagogik va texnologik mezonlarni uygʻunlashtirish kerak.

Shu asosda quyidagi xulosalarga kelindi:

- Lugʻatlarning zamonaviy tasnifi ularning funksional xususiyatlarini toʻliqroq ochib beradi;
- Elektron va multimodal lugʻatlarni yaratish oʻquvchilar uchun qulay va samarali til oʻrganish muhiti yaratadi;
- Lugʻatlarning klassifikatsiyasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega boʻlib, til taʼlimi sifatini oshirishga xizmat qiladi.
-

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Apresjan, J.D. (2000). Leksikosemantika. Moskva: Nauka.
2. Akbarov, N. (2018). Elektron lugʻatlarning lingvistik xususiyatlari. Toshkent: Fan va Texnologiya.

3. Nabiev, S. (2017). O'zbek tilida lug'atchilik. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
4. Hartmann, R.R.K. (2001). Lexicography: Principles and Practice. London: Routledge.
5. Muminov, R. (2019). O'zbek tilida elektron lug'atlar. Toshkent: Til va Adabiyot Nashriyoti.
6. Kilgarrriff, A., & Rundell, M. (2002). Lexical profiling software and its application to learner corpus research. Proceedings of the Third International Conference on Language Resources and Evaluation.
7. Zajackowska, A. (2016). Bilingual Lexicography: An Introduction to the Theory and Practice. Peter Lang.
8. Atkins, B. T. S., & Rundell, M. (2008). The Oxford Guide to Practical Lexicography. Oxford: Oxford University Press.
9. Tarp, S. (2008). Lexicography in the Borderland between Knowledge and Non-Knowledge. Tübingen: Max Niemeyer Verlag.
10. Benson, M., Benson, E., & Ilson, R. (1986). The BBI Combinatory Dictionary of English. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
11. Tursunova, G. N. (2020). Elektron lug'atlarning ta'limdagi ahamiyati. Til va adabiyot ta'limi, 6(1), 56–62.